
FARG'ONA SHAHAR TIBBIYOT BIRLASHMASINING "MAHALLABAY" ISHLASH TIZIMI QANDAY SAMARA BERMOQDA



Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi oilaviy poliklinikalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 25.02.2021 yildagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishni" mahallabay" tashkil qilish chorolari to'g'risida" gi № 38-son buyrug'ini ijrosini ta'minlashdan asosiy maqsad va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar:

1. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning mahallalar kesimida olib borish tartibini belgilaydi;
2. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishga "mahallabay" yondashuvidan asosiy maqsad aholiga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishda manzilli va maqsadli rejalarini belgilash hamda ularning ijrosi samaradorligini aniq va ob'ektiv baholashdir;
3. Har bir shahar tibbiyot birlashmasi rahbari o'z tasarrufidagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida quyidagi vazifalar bajarilishini ta'minlaydi:



a) Mahalla tibbiy brigadalar(MTB) faoliyati shakllantirilgan:

mahallaning aholi sonidan kelib chiqib, har 2000 aholiga bir oilaviy shifokor(OSh) xisobidan MTB tarkibida 1tadan 1nechtagacha OSh va 3tadan 1 nechtagacha patronaj xamshiralar bo'lishi mumkin.

b) MTB bo'yicha muassasada va MFYda ma'lumotlar taxtasi shakllantirilgan;

v) Mahallalarda tibbiyot burchagi tashkil qilingan;

g) Xatlov-antropometriya natijalari va xavf guruhlari mahallabay rasmiylashtirilgan:



Mahalla aholisining salomatlik va kasallanish xolati natijalaridan kelib chiqib, aholi xavf guruhlariga ajratiladi, barcha ma'lumotlar xonadonlar kesimida tahlil qilib boriladi.

Farg'ona shahar aholisini sonidan kelib chiqib tashkil qilingan brigadalarining asosiy maqsadi xatlov natijasida aniklangan surunkali kasallik, ortiqcha vazn, semizlik, kam vaznlik, kasalliklar kesimida 4-guruxlarga ajratib olinib, har bir guruhlar bilan aloxida ish olib borish.

Farg'ona shahar xududida 70 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, shahar tibbiyot birlashmasi tomonidan 130 ta mahallabay ishlash uchun brigadalar tashkil etilib, har bir brigada 3 nafar tibbiyot xodimi 1 nafar oila shifokori 2 nafar oila xamshirasidan tashkil topgan. Har bir MFYda brigadalarni tarkibi bo'yicha devoriy banner qilinib u brigada haqida to'liq malumotni ko'rish mumkin

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-04-14 09:53:51